



UDK: 102.6

Fazilat IBRAGIMOVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: fazilatxon81@mail.ru

DSc, professor B. Qurbonova taqrizi asosida

BADIIY MATNDA UNDOV GAPLARINING IFODALANISHI

Аннотация

Ushbu maqolada badiiy matnlarda undov gaplarning ifodalanishi, tuzilishi, ohangi va mazmuni haqida fikr yuritiladi. Undov gaplarning turlari: so'zlovchining gapda ifodalangan fikrga bo'lgan modal munosabatini ifodalovchi undov gaplarda tantana, ma'qullash, qoniqish, ishonch, hayronlik kabilar qo'shimcha emotsionallikning aks etishi, so'zlovchining emotsional kechinmalarini ifodalovchi undov gaplarda qo'rquv, vahima, nafrat, g'azab, erkalash, shodlanish, zavqlanish kabi emotsional kechinmalar ifodalanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, badiiy obraz, badiiy nutq, ijodkor individualizmi, emotsional-ekspressiv vositalar.

ВЫРАЖЕНИЕ ВОСКЛИЦАНИЙ В ЛИТЕРАТУРНОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются выразительность, структура, тон и содержание восклицаний в литературных текстах. Типы восклицаний: восклицания, выражающие модальное отношение говорящего к идее, выраженной в предложении, отражают дополнительные эмоции, такие как радость, одобрение, удовлетворение, уверенность, удивление и т. д.; и восклицания, выражающие эмоциональные переживания говорящего, выражают такие эмоциональные переживания, как страх, паника, ненависть, гнев, ласка, радость и удовольствие.

Ключевые слова: художественный текст, художественный образ, художественная речь, творческий индивидуализм, средства эмоционального выражения.

EXPRESSION OF EXCLAMATIONS IN LITERARY TEXT

Annotation

This article discusses the expression, structure, tone and content of exclamations in literary texts. Types of exclamations: exclamations that express the speaker's modal attitude to the idea expressed in the sentence reflect additional emotionality such as celebration, approval, satisfaction, confidence, surprise, and so on, and exclamations that express the speaker's emotional experiences express emotional experiences such as fear, panic, hatred, anger, caress, joy, and pleasure.

Keywords: godly text, godly image, godly speech, creative individualism, means of emotional expression.

Kirish. Badiiy matn tilida qo'llanilgan birliklar og'zaki so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, publitsistik matnlardagi til birliklaridan farqlanishi tabiiy. Chunki har bir matnning yaratilishida nafaqat so'zlovchining maqsadi, niyati namoyon bo'ladi, balki matn turining o'z yaratilish uslubi ham mavjud. Badiiy matnda til birliklarini o'z va ko'chma ma'noda qo'llash, unda emotsional-ekspressiv vositalardan unumli foydalanish, tilning turli sathi birliklarini ijodkorning badiiy maqsadiga mos qo'llash mumkin bo'ladi. Xususan, sintaktik birliklar badiiy matnlarning eng asosiy tashkil qiluvchiligidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Badiiy matni nutqning turli ko'rinishlariga xos bo'lgan boshqa matnlar bilan taqqoslaganda, uning o'ziga xos xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. "Har qanday matnning mazmunini tushunish uchun til leksikasi va grammatikasini bilish zarur va yetarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun, bundan tashqari, ayni paytda badiiy matnning o'ziga xos lisoniy-poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi" [1].

Matnning lingvistik tahlili bo'yicha olimlarimizda turli qarashlar mavjud: "Filologiyaning yaxlitligini tiklash tilshunoslik, adabiyotshunoslik, she'rshunoslik va boshqalarni aslo inkor etmaydi, aksincha, ular qo'lga kiritgan yutuqlarni matn tahliliga tatbiq etadi va shu orqali, bir tomondan, o'quvchining mazkur fanlar bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi va, ikkinchi tomondan, unda haqiqiy filolog (o'z fikrini og'zaki va yozma shakllarda aniq, ixcham, lo'nda, mantiqan izchil bayon qilish, notiqlik san'ati) ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunga erishishning yagona yo'li esa matnning filologik (lingvopoetik) tahlilidir" [2].

Keyingi paytlarda o'zbek tilshunosligida badiiy matn tahlili, lingvopoetikasini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy matnlarda tildagi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik birliklar ijodkorning maqsadiga mos ravishda emotsional-ekspressivlik ifodalaydi. Ana shunday sintaktik ekspressiv vositalardan biri undov gaplar hisoblanadi.

Undov gaplarda so'zlovchining ichki his-hayajoni, tuyg'usi yoki voqelikka bo'lgan turli emotsional munosabati ifodalanadi. So'zlovchining ichki hayajoni, tuyg'usini ifoda qiluvchi gaplar sof undov gaplardir. Darak, so'roq, buyruq gaplar ham his-hayajon bilan aytilib, undov gapga aylanishi mumkin [4].

Tilda undov gaplar boshqa gap turlaridan alohida ohangda talaffuz qilinishi bilan ham farqlanadi. "Intonatsiya tufayli, avvalo, gapning o'zini uyushtirish, uning semantik, grammatik xususiyatlarini tayinlash mumkin bo'ladi. Eng muhimi, gapning neytral va ekspressiv mazmuni yuzaga keltirishda va farqlashda intonatsiya alohida ahamiyatga ega" [5].

Tahlil va natijalar. Ijodkor "Dahshat" hikoyasida quyidagi undov gaplarni ishlatgan:

Dodxo g'ashi kelib Unsinni masxara qildi.

–Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo'y bo'lsa arzir edi? Sen o'zing o'nta qo'y bersam borasanmi?

Bu misolda undov intonatsiyasi bilan emotsionallik ifodalanyapti. Dodxo masxara qilib kinoya bilan Unsinning ustidan kuladi.

–Mayli, mayli! – dedi Unsini ko'zlari javdirab, – lekin lafzingizdan qaytmasangiz...

Bu jumlada mayli so'zi maxsus intonatsiya bilan talaffuz qilinayapti. Mayli so'zining takrori esa ma'noni kuchaytirayapti.

Unsinning nutqida ham undov gaplar ko'p. Masalan,

Biroq uning suyugani behuda edi: hamma narsani oliptiyu, eng zaruri – o'tin esidan chiqipti!

O'tin esidan chiqibdi! Undov intonatsiyasi afsus bilan ta'kid mazmuni ifodalanyapti.

Unsin qo'rquvdan telba bir ahvolda bo'lsa ham fahmladi: maymun! Dodxoning maymuni! Maymunni dodxoning o'zi olib kelmagandir, birobdan berib yuborgan! Dunyoda dodxodiy berahm odam yana bor ekanmi!

Misoldagi undov gaplar orqali ishonch, ta'kid, nafrat kabi mazmunlar ifodalanoqda.

–Nima ekanini bildingmi? – dedi. – Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi.

–Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya! – dedi Turobjon. (Abdulla Qahhor, Anor)

Bu misolda maxsus undov intonatsiyasi, mana yuklamasi, undov so'z orqali zavqlanish, mamnunlik bilan birga taajjub, ta'kid mazmunlari ham ifodalanyapti.

Gapning bu turi fikrni kuchli his bilan ifodalaydigan ayrim undov intonatsiyasi bilan, kuchli ohang bilan aytiladigan gapdir. Masalan:

U o'rtog'iga qarab: “Ot o'ldi!” – dedi.

Hikoyada turli mazmunli undov gaplar qo'llangan:

– Qurib kestin! – dedi u yig'lamsirab. – O'qishing boshingdan orдона qolsin, Maston!.. Qo'y, ey... erimdan qolmayin!..

Norozilik, afsus kabi mazmunni ifodalamoqda.

Maston otning tumshug'idan ko'tarib uning ochiq qolgan ko'zlariga qaradi; uning ko'zini kulrang sapsar parda bosganini ko'rib, qapchib qomatini rocladi-da, ko'z ilg'amaydigan uzoqlarga qaradi. Dasht, dasht!

(A.Qahhor.Maston)

Dasht so'zi maxsus undov intonatsiyasi bilan talaffuz qilinadi. Bu so'zning takrorlanishi dashtning kengligini, cheksizligini emotsional ta'riflaydi.

Undov gaplar o'z xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1. So'zlovchining gapda ifodalangan fikrga bo'lgan modal munosabatini ifodalovchi undov gaplar. Bunday undov gaplarda tantana, ma'qullash, qoniqish, ishonch, hayronlik kabilar qo'shimcha emotsionallikdir. Bu holatda xabar+emotsiya bo'ladi, ya'ni oldin xabar keyin shu xabarga modal munosabat ifodalaniadi.

Masalan,

– Asadbek molodes! Vusshiy klass! – dedi u. – Ani q topibdi. Endi u bilan hazillashib bo'lmaydi. (Tohir Malik. Shaytanat)

– E, odamlarga yaxshi gap aytsang ham ishonishmaydi-ya! Prokuror yordamchisi hozir buyruq berdi. Eringiz ozod. Tezroq boring uyingizga.

– Sergap odam ekansiz! – yigit shunday deb jerkib berdi.

(Tohir Malik. Shaytanat).

2. So'zlovchining emotsional kechinmalarini ifodalovchi undov gaplar. Bunday emotsional kechinmalarga qo'rquv, vahima, nafrat, g'azab, erkalash, shodlanish, zavqlanish kabilar kiradi. Bu holatda emotsionallik gapning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Masalan,

O!.. Ho'kiz yoq, og'il ko'cha tomondan teshilgan...

(Abdulla Qahhor. O'g'ri)

–Kambag'alchilik o'lsin! (Abdulla Qahhor. O'g'ri)

– Barakallo, o'g'lim, barakallo, – dedi Hoji kursiga ehtiyot bilan o'tirayotib, – Umringiz uzoq bo'lsin! (Abdulla Qahhor. Yillar)

Undov gaplarda turli emotsional mazmunlar ifodalaniadi. Bu emotsional ma'nolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

ijobiy emotsional ma'nolar;

salbiy emotsional ma'nolar;

betaraf emotsional ma'nolar.

Ijoby ma'nolar ifodalangan undov gaplar:

1. Tashakkur va rag'batlantirish: Yaxshi qoling, bibijon! Otangga rahmat!

(Abdulla Qahhor)

– Biz yarim kechasi yo'lga chiqib saharda o'sha yerdan o'tdik, – dedi yigitlardan biri, – otni bo'ri yegan... hayron bo'ldik... Bir yoqda paranji yotibdi. Xo'p jon saqlabsizlar-da! Azamatlar! (A.Qahhor. Maston)

2. Zavqlanish, shodlik, mamnunlik: Qanday zavqli! Qanday quvonch! Hayriyat! Tirik ekansan!

Admin xonimning xabarini o'qigach, Zulxumorning ko'zlari charaqlab ketdi. “Yo tavba! – o'yladi u yuragi quvonchdan potirlab urgancha, – shunaqasiam bo'larkan-da!? Dunyoda qanday yaxshi odamlar bor-a? Shular sabab hali-beri qiyomat bo'lmaydi!” – Zulxumor quvonib ketganidan ichida qaynotasi ko'p bora takrorlab yuradigan so'zlarni qaytarayotganini o'zi bilmadi. U darrovda Admin xonimga rahmat aytib javob yozishga iymandi. Yaxshisi javobni ertalab yozadi.

(Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

Karvon kelgani to'g'risida mujda berganlarga javoban:

3. Ishonch: O'nimdan turib chiroqni yoqdim, yotog'im boshida bir bo'lak keks, yonida dolchinli sut va kichik xat turardi: “Sen menday ona bo'lmasan, mendan ham yaxshi ona bo'lsan!” (Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

4. Iltimos: – Andrey, turaqol! – dedi tong g'ira-shirasida

Alena, – eshik ochildi. Tezda yuvinib sanitarlar bo'lmasiga borishimiz kerak. U yerda kiyimlarni almashtirib bemorlar joylashtirilgan palatalarga kiramiz. (Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

5. Orzu-umid: Xudo baxtingni bersin!

Aziz ayollar, onalar! Behuda xavotirlanmang, yomon gumon qilmang! Yaqinlaringiz ertasi, kelajagini doimo go'zal tasavvur qiling, hammasi yaxshi bo'lishiga ishoning, shundagina yaqinlaringizning taqdiri yaxshi tomonga o'zgarganini ko'rasiz.

Alloh ayollarni boridan baxt yaratishga qodir qilib yaratgan. Aziz ayollar, ishonchingiz bilan boridan baxt yarating!

(Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

Katta kelinimiz ki mlarning qizi ... Tarbiya bergan ota - onasiga ming rahmat, – dedi qaynota qaynonaga.

– Nimasini aytasiz, dadasi, – xo'rsindi qaynona, – shu kelin tufayli dunyodan o'tar chog'imizda ham ko'zimiz ochiq ketmaydigan bo'ldi. Umridan, rizqidan baraka topsin... Amin.

(Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

6. Muhabbat: Bu degani men sizga befarq emasman Gul...

Siz idoramizga kirib kelgan dastlabki soniyalardanoq ko'nglim sarhadlaridan quyosh chiqib kela boshlagan. Har bitta tomirimda qon o'rmiga ishq deb atalmish nur oqa boshlagan. Har bir yutgan nafasimda ismingiz erka shabboda misoli alla yotgan ...

Iltimos, Gul ... Meni rad etmang!

(Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

Salbiy emotsional ma'nolar:

1. Achinish: – E, essiz, essiz! Ey behoralar... – dedi o'zicha. Ey, o'zingni, holatingni bilmagan Asrorqul! (Abdulla Qahhor)

O'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki arziydigan narsa bo'lsa!.. – dedi. (Abdulla Qahhor. Dahshat)

2. Kinoya: – Yangi kasb qulluq bo'lsin, boyvachcha! – dedi O'rmonjon.

(Abdulla Qahhor)

3. G'azab, norozilik, nafrat: Bu qanday maynabozlik! (Oybek)

– Axir, ayb bo'ladi, bolam! Ikkivovi qaysi yuzi bilan bu yerga chiqib o'tiradi!

(Abdulla Qahhor. To'y)

– Ana shu chakki-da, Orziqul, ana shu chakki! Noshukurchilik...

(Abdulla Qahhor.)

– Hayvon! – dedi Abdujabbor og'ir-og'ir nafas olgancha...

– Hayvonlar bunday ish qilmaydi, – dedi Alena yigitchalarning birlashtirib tikilgan chokklariga malham surtgancha,

– hayvonlar ba'zi insonlardan ma'sumroqdirlar. (Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

4. Qo'rqish: Voydod! Voy o'lay! Onajon!

– Turg'unoy, – dedi Maston, – shu erda qoladigan bo'lsak bo'riga yem bo'lamiz!

(Abdulla Qahhor. Maston)

5. Ilojsizlik: “Hoy Ismoilning bolasi, seni Allohning O'ziga topshirdim. O'zi panohiga olmasa, mening qo'lmdan nima ham kelardi!”

(Ahmad Muhammad Tursun. Sohilsiz dengiz)

Betaraf emotsional ma'nolar:

1. Taajjub: “Qanaqa odam bu o'zi! Jinnilarni masxara qilyaptimi? Tavba! Ishtoni yo'qning ishtoni yirtiqqa kulgani shumi? Chiqib ketmasam bo'lmaydi bu yerdan” (Tohir Malik. Shaytanat).

“Farzand bilan davlatning erta-kechi yo'q emish!” Tavba qildim-ey, shu gapni aytgan qudam o'ziga o'zi qarshi chiqib o'tibdi-yu!? Shuncha yil qudachilik qilib mol-davlatga to'rganini ko'rganim yo'q bu ayolni. Eri bo'lsa ammamni buzog'i. Xotinining chizib bergan chizig'idan chiqmaydi. Rangi siniqib ketgan qizimga “Shu eringdan ajrashaqol” demoqchi bo'laman-u, ammo u kuyovimni yaxshi ko'radi. Kuyovim ham yaxshi yigit.

(Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

2. Hayratlanish: Ana qahramon! Yopiray, bu qanday qiz ekan! (Oybek)

Voy, Gulnorning shaytonligi! (Oybek)

3. Qoniqish: – Bo'yra, bo'yra ekan! – dedi va darchani yana zich yopib joyiga o'tirdi.

(Abdulla Qahhor. Dahshat)

4. Ta'kid: Ilk ko'rishdayoq bировга baho berma, chunki tuz ham, shakar ham oqdir. Ularning farqini ta'mini totib ko'rsanggina bilasan. Odamlar ham shunday!

(Xazon Rezgi. Internet ma'lumotlari)

Xulosa va takliflar. Undov gaplar so'zlovchining voqelikka bo'lgan emotsional munosabatlarini, turlicha his-hayajonini ifodalab keladi. Emotsionallikni ifodalashda darak, so'roq, buyruq gaplarning ham o'z o'ri bor. Ushbu gaplar maxsus undov intonatsiyasi bilan talaffuz qilinishi natijasida kuchli emotsionallik yuzaga keladi. Undov gaplarda turli leksik-grammatik vositalar ma'lum vazifalarni bajaradi, emotsionallikni oshiradi. Misollar tahlili ko'rsatadiki, undov gaplar orqali ijobiy, salbiy va betaraf emotsiyalarni ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. –Т.: Фан, 2008 -Б.27.
2. Мирзаев И. Лингвистик поэтика ва унинг филологик таҳлилдаги ўрни / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. -Тошкент: Университет, 2002. -Б.22-28.
3. Umirova S. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. Samarqand: Ipak yo'li, -2021. -236 bet;
4. Axmedova A. “Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari (Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon asarlari misolida)”. Fil.fan-ri bo'yicha fals. dok-ri. diss... avtoref. Toshkent, 2025. -57 b.
5. Akbarova X. Asqad Muxtor ijodida sohaviy atamalar lingvopoetikasi. Fil.fan-ri bo'yicha fals. dok-ri. diss... avtoref. Qo'qon, 2024. -56 b.
6. Каримов С. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983, – 355 б.
7. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. –Тошкен: Фан, 1987. –87 б.